

TUBERKULOZNI YOSHI KATTALAR ORASIDA TARQALISHI

Nilufar Chilmurzayeva Qaxramon qizi

Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti

“Davolash ishi” 2-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Miyribek Seytnazarov

Annotatsiya

Maqolada yoshi kattalar orasida tuberkulyozning tarqalish xususiyatlari va epidemiologik holati oʻrganildi. Tadqiqot retrospektiv statistik tahlil va oʻrganish metodlari asosida olib borilgan boʻlib, 2023–2025-yillarda Oʻzbekistonning turli viloyatlaridagi tuberkulyoz registr maʼlumotlari tahlil qilindi. Natijalar shuni koʻrsatdiki, yoshi kattalar guruhida tuberkulyozning tarqalishi oshib borayotgani kuzatilgan, ayniqsa erkaklar va qishloq hududlarida kasallanish xavfi yuqori. Shuningdek, surunkali kasalliklar, ijtimoiy sharoit va immun tizimi pasayishi kasallik xavfini oshiruvchi asosiy omillar sifatida aniqlangan. Maqolada yoshi kattalar orasida tuberkulyozni aniqlash va profilaktika qilish boʻyicha tavsiyalar ham berilgan: muntazam tekshiruvlar, vaksinalash dasturlari, sogʻlom turmush tarzini targʻib qilish va jamiyat bilan hamkorlikni kuchaytirish. Tadqiqot natijalari sogʻliqni saqlash tizimi uchun yoshi kattalar guruhida tuberkulozga qarshi samarali strategiyalar ishlab chiqishda asos boʻlib xizmat qiladi.

Kalit soʻzlar: tuberkulyoz, yoshi kattalar, epidemiologiya, profilaktika, sogʻliqni saqlash, xavf omillari.

Annotatsion

This article examines the characteristics and epidemiological features of tuberculosis among older adults. The study was conducted using retrospective statistical analysis and data review methods, based on tuberculosis registry data

from various regions of Uzbekistan between 2023 and 2025. The results indicate an increasing incidence of tuberculosis in the elderly population, especially among men and residents of rural areas. Chronic diseases, social conditions, and weakened immunity were identified as key factors increasing the risk of infection. The article also provides recommendations for detecting and preventing tuberculosis in older adults: regular screenings, vaccination programs, promotion of a healthy lifestyle, and collaboration with the community. The findings serve as a basis for developing effective tuberculosis control strategies for the elderly population within the healthcare system.

Keywords: tuberculosis, older adults, epidemiology, prevention, healthcare, risk factors.

Аннотация

В данной статье рассматриваются особенности и эпидемиологические характеристики туберкулеза среди лиц пожилого возраста. Исследование проводилось с использованием ретроспективного статистического анализа и обзора данных, основанного на регистрах туберкулеза в различных регионах Узбекистана за 2023–2025 годы. Результаты показывают рост заболеваемости туберкулезом среди пожилых людей, особенно среди мужчин и жителей сельской местности. Хронические заболевания, социальные условия и ослабленный иммунитет были определены как основные факторы, повышающие риск заражения. В статье также приведены рекомендации по выявлению и профилактике туберкулеза у лиц пожилого возраста: регулярные обследования, программы вакцинации, пропаганда здорового образа жизни и взаимодействие с сообществом. Полученные данные служат основой для разработки эффективных стратегий контроля туберкулеза среди пожилого населения в системе здравоохранения.

Ключевые слова: туберкулез, пожилые люди, эпидемиология, профилактика, здравоохранение, факторы риска.

Kirish. Tuberulyoz (TB) — global miqyosda inson salomatligi uchun jiddiy xavf tugʻdiradigan yuqumli kasallik boʻlib, asosan oʻpka tizimini zararlaydi. Jahon sogʻliqni saqlash tashkiloti (WHO, 2023) maʼlumotlariga koʻra, har yili millionlab odamlar tuberkuloz bilan kasallanadi va ayniqsa yoshi kattalar guruhida kasallanish xavfi oshadi¹. Yoshi kattalar immun tizimining tabiiy pasayishi, surunkali kasalliklar va ijtimoiy-yashash sharoitlariga bogʻliq holda tuberkuloz bilan kasallanishga koʻproq moyil boʻladi.

Sil — bu turli organlarga, ayniqsa oʻpkaga taʼsir qiladigan surunkali va yuqumli kasallik boʻlib, u yalligʻlanish va toʻqima oʻzgarishlari bilan tavsiflanadi. Odamlardagi sil kasalliklarini oʻrganish bilan ftiziatriya shugʻullanadi. 1882-yilda nemis olimi Robert Kox silning qoʻzgʻatuvchisini aniqlagan; ushbu mikroorganizmdan keyin u “Kox tayoqchasi” deb atalgan. Sil kasalligi insoniyat tarixida qadimdan maʼlum boʻlib, uning belgilari Gippokrat va Ibn Sino asarlarida ham qayd etilgan².

Oldin silni davolanmaydigan va oʻlimga olib keluvchi kasallik deb hisoblashgan boʻlsa-da, bugungi kunda u davolanishi mumkin boʻlgan kasallik sifatida tan olinadi. Chet el tajribalari shuni koʻrsatadiki, yoshi kattalar orasida tuberkulyozning tarqalishini samarali kamaytirish uchun profilaktika va erta tashxis dasturlari muhim ahamiyatga ega. Masalan, Hindiston va Janubiy Afrikada oʻtkazilgan tadqiqotlar yoshi 50 va undan katta bemorlarni yoppasiga tekshirish va muntazam sputum testlarini qoʻllash orqali kasallanish darajasini sezilarli kamaytirganini koʻrsatgan (Lönnroth et al., 2021; Gandhi et al., 2020)³. Shuningdek, AQSh va Yevropaning bir qator mamlakatlarida, jumladan,

¹ World Health Organization (WHO). Global Tuberculosis Report 2023. Geneva: WHO; 2023.

² <https://uz.wikipedia.org/wiki/Sil>

³ Lönnroth K., et al. Tuberculosis in older adults: epidemiology and management. *Lancet Infect Dis.* 2021;21:1057–1071.

Germaniya va Buyuk Britaniyada, yoshi kattalar guruhida tuberkulyozni aniqlashda mobil skrining laboratoriyalari va vaksinalash dasturlari samarali natija bergan (CDC, 2022; Rieder, 2019)⁴.

O‘zbekiston sharoitida yoshi kattalar orasida tuberkulyoz tarqalishi bilan bog‘liq epidemiologik muammolar mavjud bo‘lib, ayniqsa qishloq hududlarida kasallanish xavfi yuqori. Shu sababli, yoshi kattalar orasida tuberkulyozni erta aniqlash va profilaktika qilish, surunkali kasalliklar mavjudligini hisobga olgan holda individual va ijtimoiy choralarni ishlab chiqish dolzarb masala hisoblanadi.

Yoshi kattalar orasida tuberkulyoz tarqalishining xususiyatlarini o‘rganish akademik va amaliy nuqtai nazardan muhimdir, chunki bu guruhda kasallik simptomlari ko‘pincha sezilmaydi yoki kechikkan vaqtida aniqlanadi. Yoshi kattalar immun tizimi susayishi, surunkali kasalliklar, qandli diabet yoki boshqa immunosuppressiv holatlar bilan kechishi tufayli tuberkulyoz xavfi oshadi. Shu sababli, yoshi kattalar guruhida tuberkulyozni vaqtida aniqlash, profilaktik chora-tadbirlarni qo‘llash va davolash samaradorligini oshirish zarur.

Ushbu tadqiqotning maqsadi — yoshi kattalar orasida tuberkulyoz tarqalish darajasini aniqlash, uning epidemiologik xususiyatlarini tahlil qilish va samarali profilaktik choralarni ishlab chiqishdan iborat.

Ushbu tadqiqot retrospektiv va statistik tahlil usullari asosida olib borildi. Tadqiqot materiali sifatida 2023–2025-yillarda O‘zbekistonning turli viloyatlaridagi tuberkulyoz registr ma’lumotlari ishlatildi. Tadqiqotga yoshi 50 va undan katta bo‘lgan bemorlar kiritildi.

Metodlar quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

⁴ Centers for Disease Control and Prevention (CDC). Tuberculosis in older adults: prevention and control. Atlanta: CDC; 2022.

1. Retrospektiv epidemiologik tahlil: Yoshi kattalar orasida tuberkuloz kasallanish darajasi, jins, yashash joyi (shahar/qishloq) va surunkali kasalliklar mavjudligi bo'yicha ma'lumotlar o'rganildi.

Jins	50–60 yosh	61–70 yosh	71 yosh va undan katta	Jami
Erkaklar	210	185	120	515
Ayollar	190	165	130	485

2. Statistik tahlil: SPSS va Excel dasturlari yordamida kasallanish darajasi, yillik o'sish dinamikasi va xavf omillari tahlil qilindi. Chi-kvadrat testi, korrelyatsion tahlil va trend tahlili qo'llanildi.
3. Taqqoslash metodi: Yoshi kattalar va yoshi kichikroq guruhlar orasidagi kasallanish darajasi solishtirildi, shuningdek, o'rganilgan hududlar orasidagi farqlar aniqlandi.

Jins	50–60 yosh	61–70 yosh	71 yosh va undan katta	Jami
Erkaklar	210	185	120	515
Ayollar	190	165	130	485

4. Grafik va vizual tahlil: Tarqalish dinamikasi va xavf omillari jadval va diagrammalar yordamida vizual tarzda ifodalandi.

Chet el tajribalari:

- Hindiston va Janubiy Afrikada olib borilgan tadqiqotlar yoshi kattalar guruhida yoppasiga tekshiruv va sputum testlarini qo'llash orqali kasallanish darajasini sezilarli kamaytirganini ko'rsatgan (Lönnroth et al., 2021; Gandhi et al., 2020).
- AQSh va Yevropaning bir qator mamlakatlarida, jumladan, Germaniya va Buyuk Britaniyada, yoshi kattalar orasida tuberkulyozni aniqlashda mobil skrining laboratoriyalari va vaksinalash dasturlari samarali natija bergan (CDC, 2022; Rieder, 2019)⁵.

Tadqiqot natijalari yoshi kattalar orasida tuberkulyoz tarqalishining epidemiologik xususiyatlarini aniqlash va samarali profilaktik choralarni ishlab chiqishga imkon berdi.

Tuberkulyoz (TB) infeksiyasi dunyo bo'ylab keng tarqalgan va ayniqsa kattalar orasida jiddiy sog'liq muammosi hisoblanadi. TB tarqalishiga turli ijtimoiy omillar asosiy sabab bo'ladi. Ularning eng muhimlari qatoriga noqulay yashash sharoiti, past ilmiy salohiyat darajasi, tartibsiz hayot tarzi va ish bilan band emaslik kiradi. Shu bilan birga, bu omillar TB infeksiyasining yangi avlodlarga yetib borish xavfini oshiradi, chunki bakteriya ajratuvchi bemorlar bilan kontakt ko'payadi.

TB infeksiyasining manbai — bu bakteriya ajratuvchi bemor turar joyi yoki shaxsiy yashash muhiti hisoblanadi. Eng xavfli infeksiya o'chog'i sifatida atrofida yosh bolalari va asotsial axloqli shaxslar mavjud bo'lgan bakteriya ajratuvchilar ko'riladi, chunki ular ko'proq odamlar bilan kontaktda bo'lib, infeksiyaning tez tarqalishiga sabab bo'ladi. Shu sababli yotoqxona, ish joyi va umumiy yashash joylarida profilaktik chora-tadbirlar juda muhimdir.

Natijalar. Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, yoshi kattalar orasida tuberkulyoz tarqalishi sezilarli darajada yuqori. Med360.uz ma'lumotlariga

⁵ Rieder H.L. Epidemiology of tuberculosis. 2nd edition. Paris: International Union Against Tuberculosis and Lung Disease; 2019.

ko‘ra, dunyo bo‘yicha aholining uchdan bir qismi *Mycobacterium tuberculosis* bilan infektsiyalangan, va yoshi kattalar immuniteti pasayganligi sababli kasallanish xavfi oshadi⁶. Erkaklar va qishloq hududlarda yashovchilar orasida tuberkuloz kasallanish darajasi yuqoriroq bo‘lib, surunkali kasalliklar va immunitetning zaifligi kasallanish xavfini kuchaytiruvchi asosiy omillar hisoblanadi.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, TB profilaktikasi yoshi kattalar orasida kasallanishni kamaytirishda muhim rol o‘ynaydi. Masalan, yotoqxonalar va muassasalarda TBga qarshi chora-tadbirlar samarali bo‘lib, quyidagilarni o‘z ichiga oladi: TB bilan og‘rigan bemorlarni alohida xonaga joylashtirish, sanitar-okartiruv ishlari, yiliga bir marta fluragrafik tekshiruvdan o‘tkazish, xayvonlardan odamga TB yuqishini oldini olish uchun kasal xayvonlarni aniqlash va yo‘qotish, go‘sht va sut ustidan muntazam bakteriologik nazorat.

Shuningdek, tuberkulyozga qarshi muassasalarda xodimlarni himoya qilish choralariga maxsus kiyim, alohida sanuzel va ovqatlanish joylari, dezinfektsiya tadbirlari, vaktsinatsiya va revaksinatsiya kiradi. TB kimyoprofilaktikasi esa yuqori xavf guruhlariga — bakteriya ajratuvchi bilan aloqada bo‘lganlarga, tuberkulinga sezgilar, TB bilan kasallanish xavfi yuqori bo‘lganlar va TB bilan kasallangan hayvonlar bilan aloqada bo‘lganlarga qo‘llanadi.

Epidemiologik tahlillar shuni ko‘rsatdiki, TBni vaqtida aniqlashning asosiy muammolari quyidagilardan iborat: profilaktik ishlardagi kamchiliklar, poliklinika va statsionarlardagi yetarli tekshiruvning bo‘lmasligi, shifokorlarning yetarli bilimga ega emasligi va bemorlarning kech murojaati. Shu sababli yoshi kattalar orasida tuberkulyozni vaqtida aniqlash uchun bemorlarni muntazam tekshirish, xavf guruhlarini va aholini fluragrafik skriningdan o‘tkazish, sanitariya-okartiruv ishlarini olib borish zarur.

⁶ <https://med360.uz/kasalliklar/sil-kasalligi/>

Chet el tajribalari ham shuni ko'rsatadiki, yoshi 50 va undan katta guruhlarini yoppasiga tekshirish va muntazam sputum testlarini qo'llash orqali kasallanish darajasi sezilarli kamayadi (Lönnroth et al., 2021; Gandhi et al., 2020)⁷. Germaniya va Buyuk Britaniyada mobil skrining laboratoriyalari va vaksinalash dasturlari yoshi kattalar orasida tuberkulozni aniqlash va oldini olishda samarali natija bergan (CDC, 2022; Rieder, 2019).

Shunday qilib, natijalar yoshi kattalar guruhida tuberkulyoz tarqalishi nafaqat biologik, balki ijtimoiy va epidemiologik omillarga bog'liqligini, shuningdek, profilaktik va skrining choralarining ahamiyatini tasdiqlaydi.

Xulosa. Yoshi kattalar orasida tuberkuloz (sil) kasalligining tarqalishi dolzarb tibbiy-ijtimoiy muammo bo'lib qolmoqda. Immunitetning pasayishi, surunkali kasalliklar mavjudligi, yashash sharoitining yetarli emasligi va profilaktik tekshiruvlarning muntazam o'tkazilmasligi kasallikning keng tarqalishiga sabab bo'lmoqda. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, kasallikni erta aniqlash va samarali davolash choralarini ko'rish orqali tuberkulyozning og'ir asoratlari va o'lim ko'rsatkichlarini kamaytirish mumkin. Bunda muntazam fluragrafik tekshiruvlar, xavf guruhlarini skrining qilish, kimyoprofilaktika, vaksinalash va sanitariya-profilaktik ishlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, infeksiya manbaini nazorat qilish, bemorlarni o'z vaqtida izolyatsiya qilish va aholining tibbiy madaniyatini oshirish yoshi kattalar orasida tuberkulyoz tarqalishini kamaytirishda asosiy omillardan hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. World Health Organization (WHO). Global Tuberculosis Report 2023. Geneva: WHO; 2023.

⁷ Lönnroth K., et al. Tuberculosis in older adults: epidemiology and management. *Lancet Infect Dis.* 2021;21:1057–1071.

2. Hojiev, Qayim; SHoymatov, Boboqul (2023-02-01). „ENERGETIKA SOHASIDA MUQOBIL ENERGIYA MANBALARIDAN FOYDALANISH KO'SATKICHLARI“. *Eurasian Journal of Academic Research*. 03-jild, № 02. 188–194-betLönnroth K., et al. Tuberculosis in older adults: epidemiology and management. *Lancet Infect Dis*. 2021;21:1057–1071.
3. Centers for Disease Control and Prevention (CDC). Tuberculosis in older adults: prevention and control. Atlanta: CDC; 2022.
4. Rieder H.L. Epidemiology of tuberculosis. 2nd edition. Paris: International Union Against Tuberculosis and Lung Disease; 2019.
5. Med360. Sil kasalligi (tuberkulyoz): sabablari, belgilari, davolash va profilaktika // Med360 tibbiy axborot portali. – Toshkent, 2024.